



**SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



## **SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR-MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 922,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 8,9 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 34,1 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 58,4 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 2,7 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-May

FHI,% da



2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 572,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,5 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-may


94,7 %

2022-yil yanvar-may

96,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,9 % (17,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,8 % (14,1 %) va quyi texnologiyali – 60,4 % (62,5 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 85,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 10,0 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 165,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,2 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 83,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,3 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 119,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,4 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 151,2 %) ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Aroq




O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Paxta tolasi




Tamaki



Pivo



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 36,1 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 24,6 % ga pasaygan), 21,9 ming tonna paxta tolasi (103,3 %) ishlab chiqarishda o'sish kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	21,2	21,9	103,3
Pivo, ming litr	9788,0	8455,0	86,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	74,1	73,2	98,8
Tozalangan paxta yog'l tonna	5166	5292	102,4
Konyak spirti – litr 100 % spirt	264,2	149,0	56,4
Tamaki, mln dona	2894,0	3487,1	120,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	265,9	313,8	118,0
Paxta tiviti tonna	2010,3	2809,2	139,7

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 6,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 162,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 165,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 953,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 217,8 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 270,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 513,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 118,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 83,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 842,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 125,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 106,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 259,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 83,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 53,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 97,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 65,9 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	180434,4	102278,7	-78155,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3612051	4045522	433471

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	16 479,6	15 303,7	-1175,9
Plastmassa chiqindilari, tonna	218	221	3,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	39,8	40,9	1,1

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 102,6 % ni va O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 7,1 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 084,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 71,4 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-may

38,3%

2022- yil  
yanvar-may

31,2%

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-may

61,7%

2022- yil  
yanvar-may

68,8%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,0 % (2021- yil yanvar-may oylarida 1,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 45,85 % ni, Tayloq tumani 11,2 % ni, Urgut tumani 10,2 % ni, Samarqand tumani 7,3 % ni, hamda Jomboy tumani 6,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (121,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (204,7 %) hamda Tayloq tumanida (195,5 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 45,5 % shuningdek, Tayloq 11,2 %, Urgut 10,2 % ni, Samarqand tumanlarida 7,3 % ni tashkil etdi.



**3 277,9** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-may

**4 605,6** mlrd. so'm

2021- yil yanvar-may

**7 084,3** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-may



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

88,0%

2021- yil

124,2%

2022 yil

121,7 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 50,6 % shuningdek, tumanlardan Urgut 13,8 %, Tayloq 8,5 % ni, hamda Samarqand tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

**967,4** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-may

**2 784,0** mlrd. so'm





2021- yil yanvar-may

**4 804,2** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-may



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.



**Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 46,1 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 11,0 % ni, Urgut tumani esa 8,7 % ni tashkil etdi.

**Samarqand viloyati**

2020- yil

5 719,4 mlrd. so'm

2021 yil

7 465,9 mlrd. so'm

2022- yil

7 923,7 mlrd. so'm



2020- yil

85,2 %

2021- yil

127,9 %

2022- yil

125,3 %

Kattaqo'rg'on sh.

62,3  
76,9

Samarqand sh.

107,2 4 575,7

Toyloq

114,1  
809,2

Urgut

105,3  
863,4

Nurobod

122,1  
165,8

Samarqand

99,5  
673,9

Paxtachi

114,7  
226,6

Pastdarg'om

108,4  
316,4

Payariq

81,2  
155,5

Narpay

109,5  
253,7

Qo'shrabot

101,2  
34,2

Kattaqo'rg'on

101,6  
223,2

Ishtixon

99,2  
208,0

Jomboy

111,5  
1 093,0

Bulung'ur

99,1  
157,9

Oqdaryo

71,0  
90,2

FHI, % da

mlrd. so'm

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 673,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (93,1 %), Oqdaryo tumanida (84,1 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (81,8 %) tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (15,8 %), Paxtachi (20,6 %), Ishtixon (23,7 %), Tayloq (31,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatimizda 8 421 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 750 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,8 %) Samarqand shahriga, 1 224 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 760 tasi (9,0 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**yangi tashkil etilgan**

**faoliyat yuritayotgan**

**Jami yangi tashkil etilgan**



**Jami faoliyat yuritayotgan**

